



Received: January 10, 2026
Accepted: February 24, 2026
Available online: February 25, 2026

Bobur Turdaliyev

Mustaqil izlanuvchi
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti
Toshkent, O‘zbekiston

INNOVATSION TOPSHIRIQLAR TIZIMI TALABALARNING INGLIZ TILIDAGI OG‘ZAKI NUTQINI TAKOMILLASHTIRISHNING METODIK TA‘MINOTI SIFATIDA

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolaning asosiy maqsadi xorijiy tillarni o‘qitishda an‘anaviy ta‘lim jarayonini samarali tashkil etishga xizmat qiluvchi texnologiyalar hamda mashqlar tizimini ilmiy asosda tahlil qilishdan iborat. Tadqiqot vazifalari bir necha asosiy yo‘nalishni qamrab oladi: birinchidan, xorijiy til ko‘nikmalarini, xususan og‘zaki nutqni mashq va topshiriqlar orqali tizimli ravishda rivojlantirish; ikkinchidan, an‘anaviy ta‘limni samarali tashkil etishda qo‘llaniladigan texnologiyalar tarkibidagi mashqlar tizimini batafsil ilmiy tahlil qilish; uchinchidan, amaliy tavsiyalar ishlab chiqish va ularni ta‘lim jarayonida qo‘llash imkoniyatlarini aniqlash; to‘rtinchidan, talabalar motivatsiyasini oshirish, tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish hamda filologiya yo‘nalishi talabalari uchun kelajakda pedagogik tajriba bazasini yaratishdir.

Tadqiqot metodologiyasi pedagogik eksperiment, amaliy mashg‘ulotlar, interaktiv topshiriqlar, suhbat, anketa hamda qiyosiy statistik tahlil usullarini o‘z ichiga oladi. Eksperiment Toshkent Perfekt universiteti (Tashkent Perfect University)ning birinchi bosqich talabalari ishtirokida o‘tkazildi va ularning ingliz tilidagi og‘zaki nutq ko‘nikmalarini rivojlantirishga yo‘naltirildi. Mashqlar tizimi uch bosqichga ajratildi: motivatsion mashqlar, mavzuga oid sinov mashqlari hamda tanqidiy fikrlash mashqlari. Motivatsion mashqlar talabalarni ingliz tilini o‘rganishga qiziqitirdi va mashg‘ulotlarga diqqatini jalb etdi. Sinov mashqlari mavzuni

Bobur Turdaliyev

Independent Researcher
Uzbekistan State World Languages University
Tashkent, Uzbekistan
E-mail: turdaliyev.b@perfectuniversity.uz
ORCID iD: 0009-0007-9331-6192

INNOVATIVE TASK SYSTEM AS METHODOLOGICAL SUPPORT FOR IMPROVING STUDENTS’ ENGLISH ORAL SPEECH

ABSTRACT

The main purpose of this article is to provide a scientifically grounded analysis of technologies and systems of exercises that contribute to the effective organization of the traditional process of foreign language teaching. The objectives of the study encompass several major directions: first, to systematically develop foreign language skills, particularly oral speech proficiency, through exercises and tasks; second, to conduct a detailed scientific analysis of exercise systems incorporated into technologies applied for the effective organization of traditional instruction; third, to develop practical recommendations and determine the possibilities of their implementation in the educational process; fourth, to increase student motivation, foster critical thinking skills, and create a foundation for future pedagogical practice for students majoring in philology.

The research methodology includes a pedagogical experiment, practical classes, interactive tasks, interviews, questionnaires, and methods of comparative statistical analysis. The experiment was conducted with first-year students of Tashkent Perfect University and was aimed at developing their English oral communication skills. The system of exercises was divided into three stages: motivational exercises, topic-based assessment exercises, and critical thinking exercises. Motivational exercises encouraged students to learn English and attracted their attention to classroom activities. Assessment exercises ensured a deeper mastery of the topic, whereas critical thinking exercises taught students

chuqur o'zlashtirishni ta'minladi, tanqidiy fikrlash mashqlari esa talabalarni matni tahlil qilish, mantiqiy xulosalar chiqarish, bahsli masalalarni muhokama qilish hamda turli yechimlar ishlab chiqishga o'rgatdi.

Eksperiment natijalari shuni ko'rsatdiki, mashqlarni bosqichma-bosqich qo'llash metodikasi yuqori samaradorlikka ega. Talabalarning ingliz tilidagi og'zaki nutq ko'nikmalarida sezilarli o'sish qayd etildi, motivatsiya va qiziqish darajasi oshdi. Qiyosiy statistik tahlil esa talabalar faoliyatidagi miqdoriy o'zgarishlarni aniq tasdiqladi. Shu bilan birga, tadqiqot filologiya yo'nalishi talabalari amaliy hamda pedagogik ko'nikmalarini rivojlantirishga, kelajakda mustaqil mashqlar yaratish va ularni talabalar ehtiyojlariga moslashtirishga yordam beradi. Xulosa shundan iboratki, mashqlarni motivatsion, sinov va tanqidiy fikrlash turlariga ajratish hamda ularni izchil tartibda qo'llash metodikasi yuqori samaradorlik kasb etdi, bu orqali talabalarning ingliz tilini o'rganish jarayoni sezilarli darajada yaxshilandi.

Kalit so'zlar: Jigsaw mashqlari, muammo yechishga qaratilgan topshiriqlar, mashqlar, motivatsion mashqlar, nazorat mashqlari, ravonlik va aniqlik, tanqidiy fikrlash mashqlari, noan'anaviy usullar.

KIRISH

Jahon til ta'limi metodikasida filologiya yo'nalishi talabalari uchun ingliz tilida og'zaki nutq kompetensiyasini rivojlantirish dolzarb masala hisoblanadi. Til kompetensiyasi bir nechta subkompetensiyalardan iborat: ravonlik (fluency), aniqlik (accuracy), leksik boyluk (lexical range), muloqot qobiliyati (interaction) va nutq almashish (turn-taking). Ushbu subkompetensiyalar zamonaviy til o'qitish paradigmasida markaziy ahamiyatga ega va talabalarning samarali kommunikativ faoliyatini ta'minlaydi [Canale & Swain, 1980; 122; Karimov, 2021; 98]. Mazkur subkompetensiyalarni kompleks tarzda rivojlantirish til o'qitish jarayonida integrativ va tizimli yondashuvni talab etadi. Og'zaki nutq kompetensiyasining samarali shakllanishi faqat alohida ko'nikmalarni rivojlantirish bilan emas, balki ularni o'zaro bog'liq holda, real kommunikativ vaziyatlarda qo'llash orqali ta'minlanadi. Ayniqsa, ravonlik va aniqlik o'rtasidagi muvozanatni saqlash, leksik boylukni muloqot jarayonida faol ishlatish hamda interaction va turn-taking kabi interaktiv elementlarni rivojlantirish talabalarning haqiqiy kommunikativ kompetensiyasini shakllantirishda hal qiluvchi omil hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, an'anaviy mashqlar tizimi yetarli darajada natija bermasligi mumkin, chunki u ko'pincha kommunikativ muhitni to'liq aks ettirmaydi. Demak, innovatsion va interaktiv topshiriqlar tizimini joriy etish og'zaki nutqni rivojlantirishning metodik jihatdan eng samarali yo'nalishlaridan biri

to analyze texts, draw logical conclusions, discuss controversial issues, and generate various solutions.

The results of the experiment showed that step-by-step application of the exercise system was highly effective. Significant improvement was observed in students' English oral communication skills while motivation and interest increased. Comparative statistical analysis confirmed changes in performance. The study also developed philology students' practical and pedagogical competencies and helped them create independent exercises adapted to learners' needs. Dividing exercises into motivational assessment and critical thinking categories and applying them consistently improved English learning outcomes greatly for all students markedly.

Key words: Jigsaw exercises, problem-solving tasks, exercises, motivational exercises, assessment exercises, fluency and accuracy, critical thinking exercises, non-traditional methods.

sifatida qaraladi.

Til o'rganish jarayonidagi asosiy nazariy tamoyillar

Kommunikativ samaradorlik tamoyili til o'qitishda grammatik to'g'rilikdan ko'ra mazmunli muloqotni ustuvor deb hisoblaydi [Hymes, 1972; 34]. Ushbu yondashuv tilni qoidalar tizimi sifatida emas, balki real kommunikativ ehtiyojlarni qondiruvchi vosita sifatida talqin qiladi. Muallif fikriga ko'ra, og'zaki nutq kompetensiyasini rivojlantirishda grammatik aniqlik kommunikativ maqsad bilan uyg'unlashishi lozim; ya'ni fikr aniq va tushunarli ifodalansa, grammatik xatolar ikkilamchi ahamiyat kasb etadi. Shu bois, ta'lim jarayonida mazmunli muloqotga asoslangan topshiriqlar, erkin fikr bildirish imkoniyati hamda real hayotiy vaziyatlarni modellashtirish kommunikativ samaradorlikni ta'minlovchi muhim omillar hisoblanadi.

“Meaning-focused communication” prinsipi til o'rganishda mazmunga ustuvorlik berib, talabani nutq orqali ma'no yaratishini asosiy faoliyat sifatida ko'radi [Nunan, 1991; 111]. Ushbu yondashuvga ko'ra, til o'zlashtirish grammatik shakllarni yodlash orqali emas, balki ularni real muloqot jarayonida qo'llash orqali amalga oshadi. Muallif fikriga ko'ra, nutqiy faoliyat kommunikativ maqsadga yo'naltirilganda haqiqiy til o'zlashtirish jarayoni yuzaga keladi. Shu sababli dars jarayonida axborot almashish, fikr bildirish, muammo yechish va qaror qabul qilishga asoslangan meaning-focused topshiriqlarni qo'llash muhimdir. Bunday yondashuv talabalarning nutqiy ravonligi bilan birga, moslashuvchanlik va strategik fikrlash ko'nikmalarini ham rivojlantiradi.

“Interaction hypothesis” til o'zlashtirish jarayonida ijtimoiy muloqotning hal qiluvchi rolini ta'kidlaydi, ya'ni talabalar tilni o'zaro interaktsiya orqali chuqurroq o'zlashtiradilar [Long, 1996; 45]. Ushbu yondashuvga ko'ra, tilni egallash faqat individual o'rganish bilan cheklanmay, balki faol kommunikativ jarayonda shakllanadi. Muallif fikriga ko'ra, muloqot davomida yuzaga keladigan tushunmovchiliklarni aniqlashtirish, savollar berish va fikrni qayta ifodalash kabi jarayonlar tilni ongli va tabiiy o'zlashtirishga xizmat qiladi. Shu sababli juftlikda ishlash, guruh muhokamalari, information gap va problem-solving kabi interaktiv topshiriqlar talabalarning nutqiy faolligini oshirib, ularning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantiradi. Natijada til o'rganish jarayoni passiv qabul qilishdan faol, konstruktiv faoliyatga aylanadi.

“Task-Based Learning” (TBLT) real hayotiy vaziyatlarga asoslangan topshiriqlar orqali til o'rganish samaradorligini oshiruvchi yondashuvdir [Willis, 1996; 95]. Ushbu modelda topshiriq asosiy o'quv birligi sifatida qaralib, ta'lim jarayoni real kommunikativ faoliyatga yaqinlashtiriladi. Muallif fikriga ko'ra, TBLT talabalarning tilni sun'iy mashqlar orqali emas, balki maqsadga yo'naltirilgan amaliy faoliyatlar davomida o'zlashtirishini ta'minlaydi. Topshiriqlar muammo yechish, qaror qabul qilish va axborot almashish kabi kommunikativ faoliyatlarni o'z ichiga oladi. Natijada til birliklari alohida o'rganilmay, balki mazmunli kontekstda qo'llaniladi. Shu bois, TBLT yondashuvi og'zaki nutqning ravonligi, mantiqiyliги va kommunikativ samaradorligini rivojlantirishda muhim metodik ahamiyatga ega.

“Content and Language Integrated Learning” (CLIL) til va mazmunni integratsiyalash orqali til kompetensiyasini kompleks rivojlantirishga qaratilgan

yondashuvdir [Coyle et al., 2010; 156]. Ushbu modelda til o‘qitish faqat lingvistik ko‘nikmalar bilan cheklanmay, kognitiv rivojlanish bilan uyg‘un holda amalga oshiriladi. Muallif fikriga ko‘ra, CLIL talabalarga tilni alohida fan sifatida emas, balki bilim olish vositasi sifatida qo‘llash imkonini beradi. Natijada talabalar fan mazmunini o‘zlashtirish jarayonida tilni tabiiy ravishda ishlatadi, bu esa leksik, grammatik va kommunikativ kompetensiyalarning kompleks rivojlanishiga xizmat qiladi. Shu bilan birga, CLIL yondashuvi talabalarning tanqidiy fikrlash, tahlil qilish va mantiqiy xulosa chiqarish ko‘nikmalarini ham rivojlantiradi. Shu bois, ushbu yondashuv til o‘rganishni yanada mazmunli va samarali jarayonga aylantiradi.

Tadqiqotlar talaba markazli yondashuv, real kommunikativ vaziyatlar va interaktiv mashqlar til o‘rganish samaradorligini oshirishini ko‘rsatadi [Richards & Rodgers, 2001; 78]. Interaktiv metodlar o‘quvchilarning nutqiy kompetensiyasini rivojlantirib, ularni faol ishtirokka undaydi [Yuldashev, 2020; 67]. Shuningdek, zamonaviy metodik qarashlarga ko‘ra, kommunikativ vazifalar va faol ishtirok talabalarning nutqiy kompetensiyasini sezilarli darajada oshiradi [Brown, 2001; 56]. Ushbu ilmiy yondashuvlar ta‘lim jarayonida talaba markazli modelning ustuvorligini tasdiqlaydi. Til o‘rganish samaradorligi o‘qituvchiga yo‘naltirilgan an‘anaviy modelga nisbatan talabani faol subyekt sifatida jalb etuvchi interaktiv muhitda yuqori bo‘ladi. Ayniqsa, real kommunikativ vaziyatlarga asoslangan mashqlar talabalarning nutqiy faolligini oshiradi va ularni tilni amaliy qo‘llashga yo‘naltiradi. Natijada interaktiv metodlar orqali talabalar nafaqat til birliklarini o‘zlashtiradi, balki ularni muloqot jarayonida to‘g‘ri qo‘llash, fikrni erkin ifodalash va samarali kommunikatsiyaga kirishish ko‘nikmalarini ham rivojlantiradi. Shu bois, kommunikativ vazifalarga asoslangan faoliyatlar nutqiy kompetensiyani kompleks rivojlantirishda muhim metodik vosita hisoblanadi.

O‘zbekiston OTMLarida ingliz tilini o‘qitishda og‘zaki nutq kompetensiyasini rivojlantirish dolzarb masala hisoblanadi [Saidova, 2020; 101]. Innovatsion texnologiyalar va interaktiv metodlar ta‘lim samaradorligini oshiruvchi muhim omillar sifatida e‘tirof etiladi [Xudoyberdiyev, 2018; 76]. Ayniqsa, filologiya yo‘nalishi talabalari erkin va mazmunli muloqot ko‘nikmalarini shakllantirishi zarur [Rasulov, 2019; 122]. Muallif fikriga ko‘ra, O‘zbekiston oliy ta‘lim tizimida og‘zaki nutq kompetensiyasini rivojlantirish nafaqat metodik, balki strategik ahamiyatga ega vazifa hisoblanadi. Zamonaviy ta‘lim talablari talabalardan tilni passiv bilim sifatida emas, balki faol kommunikativ vosita sifatida egallashni talab etadi. Shu sababli innovatsion texnologiyalar va interaktiv metodlarning joriy etilishi ta‘lim jarayonini modernizatsiya qilishga xizmat qilib, talabalarning nutqiy faolligini oshiradi. Ayniqsa, filologiya yo‘nalishi talabalarida erkin fikr bildirish, muloqotni boshqarish va kommunikativ vaziyatlarga moslashish ko‘nikmalarini shakllantirish kasbiy kompetensiyaning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Shu bois interaktiv va innovatsion yondashuvlar og‘zaki nutq kompetensiyasini rivojlantirishda samarali metodik vosita sifatida qaraladi.

Zamonaviy metodik yondashuvlar

“Communicative Language Teaching” (CLT) tilni muloqot vositasi sifatida o‘rganishga yo‘naltirilgan yondashuv bo‘lib, u lingvistik qoidalarni yodlashdan ko‘ra, tilni real kommunikativ vaziyatlarda faol qo‘llashni asosiy maqsad sifatida belgilaydi [Richards & Rodgers, 2001; 78]. Muallif fikriga ko‘ra, CLT yondashuvida talabaning fikrini erkin ifodalashi, mazmun yaratishi va samarali muloqotga kirishishi asosiy e‘tiborda turadi. Ushbu yondashuv interaktiv faoliyatlar asosida tashkil etilib, autentik kommunikativ muhitni shakllantiradi. Natijada, talabalar til birliklarini nafaqat o‘zlashtiradi, balki ularni real hayotiy vaziyatlarda to‘g‘ri qo‘llash ko‘nikmasini ham rivojlantiradi, bu esa og‘zaki nutq kompetensiyasining kompleks shakllanishiga xizmat qiladi.

“Task-Based Language Teaching” (TBLT) talabalarni real vaziyatlarda faol ishtirok etishga yo‘naltiruvchi yondashuv bo‘lib, u til o‘qitishni amaliy kommunikativ vazifalar asosida tashkil etadi [Ellis, 2003; 122]. Muallif fikriga ko‘ra, ushbu yondashuvda til tayyor strukturalarni takrorlash orqali emas, balki muayyan topshiriqlarni bajarish jarayonida o‘zlashtiriladi. Topshiriqlar muammo yechish, qaror qabul qilish, axborot almashish va hamkorlikda ishlash kabi faoliyatlarni o‘z ichiga oladi. Natijada talabalarning nutqiy faolligi oshadi va til o‘rganish jarayoni sun‘iy mashqlardan real kommunikativ vaziyatlarga yaqinlashadi, bu esa og‘zaki nutq kompetensiyasining tabiiy rivojlanishini ta‘minlaydi.

CLIL: til va mazmuni integratsiyalash orqali nutq subkompetensiyalarini kompleks rivojlantiruvchi yondashuvdir [Coyle et al., 2010; 156]. Ushbu yondashuvda til o‘qitish jarayoni lingvistik va kognitiv komponentlarning integratsiyasi asosida tashkil etiladi, ya‘ni til bilim olish vositasi sifatida qo‘llanadi. Natijada talabalar til birliklarini sun‘iy mashqlar emas, balki real akademik va kommunikativ kontekstlarda qo‘llash imkoniyatiga ega bo‘ladi. CLIL og‘zaki nutqning fluency, accuracy, lexical range va interaction kabi subkompetensiyalarini bir vaqtning o‘zida rivojlantiradi hamda kognitiv fikrlash va akademik muloqot ko‘nikmalarini mustahkamlaydi.

Mavjud tadqiqotlarda kommunikativ mashqlar va interaktiv metodlarning umumiy samaradorligi yoritilgan bo‘lsa-da, filologiya yo‘nalishi 1-bosqich talabalari uchun noan‘anaviy mashqlar strukturasi, ularning og‘zaki nutq subkompetensiyalariga ta‘siri hamda CEFR mezonlari asosida baholash mexanizmlari yetarlicha o‘rganilmagan [Bygate et al., 2001; 156]. Ushbu metodik bo‘shliq noan‘anaviy mashqlar tizimini ishlab chiqish va uni empirik asosda sinovdan o‘tkazish zaruratini yuzaga keltiradi. Amaldagi yondashuvlar ko‘pincha kommunikativ mashqlarning umumiy samaradorligi bilan cheklanib, ularning ichki tuzilishi va bosqichma-bosqich tashkil etilish mexanizmlarini yetarli darajada yoritmaydi. Shu sababli, filologiya yo‘nalishi birinchi bosqich talabalari uchun motivatsion, amaliy va tanqidiy fikrlashga yo‘naltirilgan mashqlar tizimini CEFR mezonlari asosida integratsiyalash hamda uning fluency, accuracy, lexical range, interaction va turn-taking kabi subkompetensiyalarga ta‘sirini alohida tahlil qilish ilmiy jihatdan dolzarb hisoblanadi. Bu esa nazariy va amaliy jihatdan asoslangan metodik modelni shakllantirish imkonini beradi.

Motivatsion, sinov va tanqidiy fikrlashga yo‘naltirilgan mashqlar ketma-

ketligining fluency, accuracy, lexical range, interaction va turn-taking kabi indikatorlarga ta'siri bo'yicha empirik ma'lumotlar yetarli emas [Karimov, 2021; 98]. Ushbu empirik bo'shliq mashqlar tizimini nafaqat nazariy, balki strukturaviy va bosqichma-bosqich yondashuv asosida o'rganish zaruratini kuchaytiradi. Chunki bunday mashqlar ketma-ketligi talabalarning og'zaki nutq rivojlanishida turli darajadagi kognitiv va kommunikativ yuklamani yuzaga keltiradi. Shu bois, har bir bosqichning alohida ravishda fluency, accuracy, lexical range, interaction va turn-taking subkompetensiyalariga ta'sirini tizimli tahlil qilish ilmiy jihatdan muhim hisoblanadi. Bu yondashuv qaysi turdagi mashqlar nutqiy kompetensiyaning qaysi komponentini samaraliroq rivojlantirishini aniqlashga hamda optimallashtirilgan metodik model yaratishga imkon beradi.

Yuqorida ko'rib chiqilgan nazariy yondashuvlar va ilmiy qarashlar asosida shuni xulosa qilish mumkinki, ingliz tilini o'qitishda kommunikativ, task-based va CLIL yondashuvlari talabalarning og'zaki nutq kompetensiyasini rivojlantirishda muhim metodik asos bo'lib xizmat qiladi. Biroq mavjud tadqiqotlar ushbu yondashuvlarning umumiy samaradorligini yoritgan bo'lsa-da, ularning ichki strukturasi, ayniqsa motivatsion, sinov va tanqidiy fikrlashga yo'naltirilgan mashqlar ketma-ketligining fluency, accuracy, lexical range, interaction va turn-taking kabi subkompetensiyalarga alohida ta'siri yetarlicha empirik asosda o'rganilmagan.

Shu sababli filologiya yo'nalishi talabalari uchun maxsus ishlab chiqilgan bosqichma-bosqich innovatsion mashqlar tizimini CEFR mezonlari asosida ilmiy jihatdan asoslash va tajriba-sinovdan o'tkazish dolzarb hisoblanadi. Bunday yondashuv nafaqat og'zaki nutq kompetensiyasining tarkibiy qismlarini kompleks rivojlantirishga, balki har bir mashq turining (motivatsion, amaliy va tanqidiy) alohida pedagogik samaradorligini aniqlashga ham imkon beradi. Natijada, til o'qitish jarayoni nazariy umumlashmalardan amaliy, aniq va o'lchanadigan metodik modelga o'tadi.

Mazkur tadqiqotimizdan ko'zlangan maqsad filologiya yo'nalishi 1-bosqich talabalari uchun noan'anaviy mashqlar tizimi orqali ingliz tilida og'zaki nutq kompetensiyasini rivojlantirish samaradorligini aniqlashdan iborat. Buning uchun bir qator vazifalar belgilab olindi: (1) noan'anaviy mashqlar tizimini ishlab chiqish va metodik asoslarini yaratish; (2) og'zaki nutq subkompetensiyalarini CEFR indikatorlari bo'yicha baholash; (3) tajriba va nazorat guruhlarini natijalarini solishtirish; (4) olingan natijalarni sifat va statistik jihatdan tahlil qilish.

O'z navbatida, ular asosida shakllantirilgan tadqiqotimiz savoli shunday:

Filologiya yo'nalishi talabalari uchun ishlab chiqilgan noan'anaviy mashqlar tizimi ingliz tilida og'zaki nutq subkompetensiyalarini CEFR mezonlari asosida rivojlantirishda an'anaviy yondashuvga nisbatan qanchalik samarali?

Ilmiy gipotezasi esa:

Agar talabalarga motivatsion, sinov va tanqidiy fikrlashga yo'naltirilgan noan'anaviy mashqlar tizimi qo'llansa, u holda ularning og'zaki nutq kompetensiyasi, xususan fluency, accuracy, lexical range, interaction va turn-taking subkompetensiyalari

sezilarli darajada oshadi.

TADQIQOT METODLARI

Ushbu tadqiqotning ishtirokchilari sifatida Toshkent Perfekt universiteti Ingliz tili filologiyasi yo‘nalishi 1-bosqich talabalari tanlandi. Umumiy hisobda 122 nafar talaba tadqiqot jarayonida qatnashdi. Talabalar ikki teng guruhga taqsimlandi: nazorat guruhi (n = 61) va tajriba guruhi (n = 61).

Nazorat guruhi an’anaviy o‘qitish metodlari asosida, ya’ni butun sinf mashqlari va klassik dars faoliyatlari bilan shug‘ullandi. Tajriba guruhi esa maxsus ishlab chiqilgan noan’anaviy va innovatsion mashqlar tizimi yordamida o‘qitildi. Bu tizim talabalarning motivatsiyasini oshirish, tanqidiy fikrlashni rag‘batlantirish va fluency, accuracy, lexical range, interaction va turn-taking subkompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan edi.

Guruhlarning boshlang‘ich bilim darajasi pre-test bosqichida CEFR A2 oral bandi bo‘yicha baholandi [Council of Europe, 2001; 164]. Natijalar guruhlar o‘rtasida sezilarli farq yo‘qligini ko‘rsatdi, bu esa eksperimental sharoitlarning tengligini ta’minladi. Shu orqali tadqiqot natijalari nazorat va tajriba guruhlar o‘rtasidagi farqlarni aniq baholash imkonini berdi (1-jadvalga qarang):

1-jadval

Guruh	N	Jins (Ayol/Erkak)	Millat (O‘zbek/Rus)	Boshlang‘ich CEFR darajasi
Tajriba	61	27/34	38/23	A2
Nazorat	61	26/35	39/22	A2
Jami	122	53/69	77/45	A2

Tadqiqot doirasida ishtirokchilarning demografik ko‘rsatkichlari, xususan jins va millat bo‘yicha tahlil qilindi. Natijalarga ko‘ra, talabalar tarkibi 77 nafar o‘zbek va 45 nafar rus talabadan iborat bo‘ldi. Jins bo‘yicha esa 43% ayol va 57% erkak talabalarni tashkil etdi. Bunday demografik tahlil tadqiqot natijalarining ob‘yektivligini oshirishga xizmat qiladi va statistik barqarorlikni ta’minlash imkonini beradi. Shu bilan birga, guruhlarning milliy va jinsiy tarkibi tadqiqotdagi farqlarni baholash va ularning natijalarga ta’sirini aniqlashda muhim rol o‘ynaydi [Dörnyei, 2007]. Ushbu tadqiqot quasi-experimental dizayn asosida olib borildi. Quasi-experimental dizayn sabab-oqibat bog‘liqligini aniqlashda keng qo‘llaniladi va nazorat guruhlar bilan solishtirish imkonini beradi [Creswell, 201; 123]. Eksperiment 8 hafta davom etdi. Shu vaqt mobaynida tajriba guruhi motivatsion, leksik va til ko‘nikmalarini rivojlantiruvchi, shuningdek tanqidiy fikrlashni shakllantiruvchi noan’anaviy mashqlar bilan ishladi, nazorat guruhi esa an’anaviy darslik mashqlari va sinf faoliyati bilan shug‘ullandi.

Baholash vositalari

Pre-test va *post-test* jarayonida talabalar og‘zaki nutq kompetensiyasi CEFR tizimining A2–B1 oraliq darajalari asosida baholandi [Council of Europe, 2001; 164]. Bunday yondashuv talabalarning nutqiy rivojlanish dinamikasini aniq va obyektiv o‘lchash imkonini beradi, chunki CEFR mezonlari fluency, accuracy, lexical range va kommunikativ interaksiyani kompleks tarzda baholashga xizmat qiladi. Shu orqali

tajriba va nazorat guruhlari o'rtasidagi real o'zgarishlarni ilmiy asosda taqqoslash imkoniyati yaratiladi.

Analitik speaking rubric yordamida talabalar og'zaki nutqi fluency (ravonlik), accuracy (aniqlik), lexical range (leksik boylik), interaction (muloqot qobiliyati) va turn-taking (nutq almashish) indikatorlari asosida baholandi [Luoma, 2004; 122]. Bunday ko'p o'lchovli baholash yondashuvi talabani nutqiy kompetensiyasini yaxlit emas, balki uning tarkibiy subkompetensiyalari kesimida aniq tahlil qilish imkonini beradi. Bu esa har bir ko'rsatkich bo'yicha alohida rivojlanish dinamikasini kuzatish va o'qitish jarayonini individual ehtiyojlarga moslashtirishga xizmat qiladi.

Motivatsiya so'rovnomasi Likert 1-5 ballik shkala asosida o'tkazilib, talabalar ingliz tilini o'rganishga bo'lgan motivatsiya darajasi o'lchandi [Likert, 1932; 111]. Bunday yondashuv talabalarning ichki va tashqi motivatsion omillarini miqdoriy jihatdan baholash imkonini beradi hamda ularning o'quv jarayonidagi faolligi va interaktiv mashqlarga munosabatini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Classroom observation checklist yordamida dars jarayonidagi talabalar faolligi hamda bajarilgan mashqlarning samaradorligi tizimli ravishda kuzatildi [Richards & Farrell, 2005; 95]. Bunday kuzatuv usuli o'quv jarayonining real dinamikasini aniqlashga, talabalarning ishtiroki, interaktivlik darajasi va mashqlarni bajarish sifatini bevosita baholashga imkon beradi. Shu orqali so'rovnomasi va test natijalarini amaliy pedagogik kuzatuv bilan to'ldirib, tadqiqotning ishonchliligini oshirishga xizmat qiladi.

Jarayon va mashqlar. Motivational tasks, jumladan "Lie to me" kabi interaktiv mashqlar orqali talabalar dars jarayoniga faol jalb etildi [Dörnyei, 2001; 95]. Muallif fikriga ko'ra, bunday topshiriqlar talabalarda qiziqish va ichki motivatsiyani kuchaytirib, ularni og'zaki muloqotga faol kirishishga undaydi. Natijada, til o'rganish jarayonida psixologik to'siqlar kamayadi hamda talabalarning kommunikativ faolligi va ishtirok darajasi sezilarli darajada oshadi.


Information gap va Jigsaw topshiriqlari talabalarda leksik interaksiya hamda amaliy til ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qildi [Nation & Newton, 2009; 164]. Muallif fikriga ko'ra, bunday topshiriqlar talabalarni bir-biri bilan axborot almashishga majbur qilib, real kommunikativ ehtiyoj yaratadi. Natijada, ular tilni passiv bilim sifatida emas, balki faol muloqot vositasi sifatida qo'llashga o'rganadi, bu esa og'zaki nutq kompetensiyasining kompleks rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Problem-solving va decision-making topshiriqlari talabalarning strategik va mantiqiy kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qildi [Skehan, 1998; 49]. Bunday topshiriqlar talabalarni muammoni tahlil qilish, muqobil yechimlarni ishlab chiqish va asoslangan qaror qabul qilish jarayoniga jalb etadi. Natijada, til faqat lingvistik vosita sifatida emas, balki fikrni ifodalash va muammoni hal qilish instrumenti sifatida shakllanadi, bu esa og'zaki nutqning mantiqiyliги va izchilligini sezilarli darajada oshiradi.

Debates va opinion exchange topshiriqlari talabalarning tanqidiy va mantiqiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qildi [Facione, 2011; 123]. Bunday faoliyatlar talabalarni o'z fikrini asoslab berish, qarshi argumentlarni tahlil qilish

va muqobil nuqtai nazarlarni baholashga undaydi. Natijada, og‘zaki nutq jarayoni nafaqat til birliklarini to‘g‘ri qo‘llash, balki mantiqiy asoslangan va mazmunli kommunikatsiyani amalga oshirish vositasiga aylanadi.

Izoh: Har bir bosqich talabalarni motivatsiya qilish, leksik interaktsiya, tanqidiy fikrlash va muloqot qobiliyatlarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan.



Nazorat guruhi esa savol-javob, retelling va topic speaking kabi an‘anaviy mashqlarni bajarish orqali dars jarayonida o‘z bilimlarini mustahkamladi [Ur, 1996; 95]. Bunday yondashuv asosan mavjud bilimlarni qayta tiklash va mustahkamlashga yo‘naltirilgan bo‘lib, talabalarning erkin kommunikativ faoliyatini cheklangan darajada rivojlantiradi. Shu bilan birga, u til strukturalarini o‘zlashtirishda muhim asos bo‘lib xizmat qilsa-da, interaktiv va muammoli topshiriqlarga nisbatan og‘zaki nutq kompetensiyasining kompleks rivojlanishini kamroq darajada ta‘minlaydi.

Tadqiqot jarayonida qo‘llanilgan mashqlar tizimi shuni ko‘rsatdiki, talabalarning ingliz tilidagi og‘zaki nutq kompetensiyasini rivojlantirishda bosqichma-bosqich tashkil etilgan innovatsion topshiriqlar an‘anaviy mashqlarga nisbatan yuqori samaradorlikka ega. Motivatsion mashqlar talabalarni o‘quv jarayoniga faol jalb etib, ularning ichki qiziqishi va kommunikativ ishtirokini kuchaytirdi hamda psixologik to‘siqlarni kamaytirdi.

Information gap va jigsaw topshiriqlari real kommunikativ ehtiyoj yaratish orqali talabalar o‘rtasida leksik interaktsiya va hamkorlikdagi nutqni rivojlantirdi. Problem-solving va decision-making mashqlari esa mantiqiy fikrlash, strategik yondashuv va asoslangan nutq qurish ko‘nikmalarini shakllantirib, og‘zaki nutqning mazmuniy va strukturaviy sifatini oshirdi. Debates va opinion exchange faoliyatlari talabalarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirib, ularni fikrni asoslash, dalil keltirish va muqobil nuqtai nazarlarni tahlil qilishga o‘rgatdi deb hisoblaymiz.

Nazorat guruhida qo‘llanilgan an‘anaviy mashqlar bilimlarni mustahkamlashga xizmat qilgan bo‘lsa-da, ular interaktivlik, mustaqil fikrlash va kommunikativ faollikni rivojlantirishda nisbatan cheklangan natija berdi deb hisoblaymiz.

Umuman olganda, natijalar shuni tasdiqlaydiki, motivatsion, interaktiv va tanqidiy fikrlashga yo‘naltirilgan mashqlar tizimi talabalarning og‘zaki nutq kompetensiyasini kompleks rivojlantirishda samarali metodik model bo‘lib, u til

o'rganishni passiv jarayondan faol, kommunikativ va amaliy jarayonga aylantiradi deb hisoblaymiz.

Statistik tahlil

Tadqiqotda miqdoriy metodlar qo'llanildi. Baholash uchun quyidagi usullar ishlatildi:

Mean score va gain score hisoblash usullari talabalarning pre-test va post-test natijalarini miqdoriy tahlil qilishda asosiy statistik ko'rsatkichlar sifatida qo'llanildi [Field, 2013; 123]. Mean score o'rtacha natijalarni aniqlash orqali guruhlarining umumiy darajasini ifodalasa, gain score esa o'quv jarayonidagi real o'sish dinamikasini ko'rsatadi. Ushbu ikki ko'rsatkichni birgalikda tahlil qilish tajriba va nazorat guruhlari o'rtasidagi samaradorlik farqini aniq va ishonchli baholash imkonini beradi.

Paired t-test va independent samples t-test statistik usullari yordamida tadqiqotda olingan natijalar tahlil qilinib, guruhlar o'rtasidagi hamda guruh ichidagi o'zgarishlar solishtirildi [Pallant, 2020; 98]. Paired t-test bir guruh ichidagi (pre-test va post-test) o'zgarishlarning statistik ahamiyatini aniqlashga xizmat qilsa, independent samples t-test esa tajriba va nazorat guruhlari o'rtasidagi farqlarni aniqlash imkonini beradi. Ushbu yondashuv natijalarining ishonchliligini oshirib, mashqlar tizimining samaradorligini ilmiy asosda tasdiqlashga xizmat qiladi.

Effect size (Cohen's d) ko'rsatkichi orqali tadqiqot natijalarining amaliy samaradorlik darajasi aniqlandi [Cohen, 1988; 135]. Ushbu indikator faqat statistik ahamiyatni emas, balki o'zgarishning real pedagogik ta'sir kuchini ham ifodalaydi. Shu orqali tajriba va nazorat guruhlari o'rtasidagi farqning qanchalik sezilarli ekanligi miqdoriy jihatdan baholanadi va innovatsion mashqlar tizimining og'zaki nutq kompetensiyasiga ta'siri yanada aniq asoslanadi.

Tadqiqotda qo'llanilgan miqdoriy statistik yondashuv (mean score, gain score, paired t-test, independent samples t-test hamda Cohen's d effect size) og'zaki nutq kompetensiyasini rivojlantirishga qaratilgan mashqlar tizimining samaradorligini kompleks va ishonchli baholash imkonini berdi. Mean score va gain score ko'rsatkichlari orqali talabalarning boshlang'ich va yakuniy natijalari hamda o'sish dinamikasi aniqlanib, tajriba va nazorat guruhlari o'rtasidagi farqlar miqdoriy jihatdan ifodalandi.

Paired t-test va independent samples t-test natijalari esa guruh ichidagi rivojlanish hamda guruhlararo farqlarning statistik jihatdan ahamiyatli ekanligini tasdiqladi. Bu esa o'quv jarayonidagi o'zgarishlarning tasodifiy emas, balki qo'llanilgan metodik yondashuv bilan bevosita bog'liqligini ko'rsatadi.

Shuningdek, Cohen's d effect size ko'rsatkichi orqali aniqlangan natijalar innovatsion mashqlar tizimining amaliy pedagogik ta'siri yuqori ekanligini tasdiqlab, faqat statistik ahamiyatni emas, balki real ta'limiy samaradorlikni ham yoritdi deb hisoblaymiz.

Umuman olganda, ushbu miqdoriy tahlil yondashuvi tadqiqot natijalarining ishonchliligini oshirib, innovatsion mashqlar tizimining filologiya yo'nalishi talabalari og'zaki nutq kompetensiyasini rivojlantirishda samarali va ilmiy asoslangan metodik model ekanligini tasdiqladi deb hisoblaymiz.

Ushbu metodik yondashuv tadqiqotning ishonchliligi va natijalarning ob'yektivligini ta'minladi hamda noan'anaviy mashqlar tizimining filologiya yo'nalishi talabalari og'zaki nutq kompetensiyasiga ta'sirini aniq ko'rsatishga imkon berdi.

NATIJALAR VA MUNOZARA

Eksperiment davomida olingan pre-test va post-test natijalari noan'anaviy mashqlar tizimining samaradorligini miqdoriy jihatdan aniqlash imkonini berdi (2-jadvalga qarang). Ushbu natijalar orqali tajriba guruhi va nazorat guruhi o'rtasidagi o'sish farqi, ya'ni gain score, aniqlandi va statistika yordamida solishtirildi.

Shuningdek, tadqiqotda pedagogik kuzatuv va motivatsion so'rovnomalar qo'llanildi, bu esa sifat jihatidan tahlil olib borish imkonini yaratdi. Kuzatuv natijalari dars jarayonidagi faoliyat darajasi, talabalar ishtiroki va mashqlarni bajarish sifatini yoritdi, so'rovnomalar esa talabalar motivatsiyasi va interaktiv mashqlarga qiziqishini aniqladi. Shu tarzda, miqdoriy va sifat jihatdan olingan ma'lumotlar bir-birini to'ldirib, noan'anaviy mashqlar tizimining filologiya yo'nalishi talabalari og'zaki nutq kompetensiyasini rivojlantirishdagi samaradorligini ishonchli baholash imkonini berdi.

2-jadval

Guruh	Pre-test (Mean ± SD)	Post-test (Mean ± SD)	Gain Score	t-test (p)	Cohen's d
Tajriba	45.2 ± 5.1	68.7 ± 4.8	23.5	<0.05	1.2
Nazorat	44.9 ± 5.3	55.3 ± 5.0	10.4	<0.05	0.4

Tadqiqot jarayonida barcha ishtirokchilardan yozma rozilik olindi. Ularning shaxsiy ma'lumotlari maxfiylik tamoyili asosida saqlandi va faqat ilmiy tadqiqot maqsadlarida ishlatildi. Ishtirokchilar tadqiqot jarayonida o'z xohlari bilan qatnashdilar va istalgan vaqtda tadqiqotdan chiqish huquqiga ega edilar. Shu tarzda, tadqiqot BERA (2018) etika qoidalariga to'liq rioya qilgan holda amalga oshirildi [BERA, 2018; 198].

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, tajriba guruhi noan'anaviy mashqlar tizimi asosida o'qitilganda, ularning og'zaki nutq ko'nikmalari, leksik boylik va grammatik aniqligi, shuningdek muloqot va turn-taking qobiliyatlari sezilarli darajada yaxshilangan. Motivatsion mashqlar talabalarning ingliz tilini o'rganishga bo'lgan qiziqishini oshirgan bo'lsa, problem-solving va debate mashqlari tanqidiy fikrlash va mantiqiy asoslash ko'nikmalarini mustahkamlashga xizmat qilgan deb hisoblaymiz.

Nazorat guruhi bilan solishtirganda, tajriba guruhi o'rtacha ko'rsatkichlari aniq yuqoriroq bo'lib, statistik tahlillar ushbu farqning sezilarli ekanligini tasdiqladi ($p < 0.05$, Cohen's $d > 0.8$). Ushbu natijalar shuni ko'rsatadiki, noan'anaviy va interaktiv mashqlar tizimi filologiya yo'nalishi talabalari uchun og'zaki nutq kompetensiyasini rivojlantirishda samarali vosita bo'lishi mumkin deb hisoblaymiz.

Tajriba va nazorat guruhlari pre-test bosqichida CEFR A2 oral bandi bo'yicha baholandi. Natijalar guruhlar orasida sezilarli tafovut yo'qligini ko'rsatdi, bu esa eksperiment uchun teng sharoit mavjudligini tasdiqlaydi [Saidova, 2020; 111].

Eksperiment yakunida tajriba guruhi pre-testga nisbatan sezilarli o'sish ko'rsatdi. Ushbu natijalar Nunan (1991) tomonidan ilgari surilgan meaning-focused communication konsepsiyasi bilan mos keladi, bunda til o'rganish jarayonida mazmun yaratish markaziy o'rin tutadi. Shuningdek, natijalar task-based learning (TBLT) modeli bilan ham uyg'unlikni ko'rsatdi, ya'ni real vazifalar orqali til o'zlashtirish samaraliroq amalga oshadi [Ellis, 2003; 135].

Task-based faoliyat fluency va accuracy o'rtasida muvozanatni ta'minlaydi, bu esa mazkur tadqiqot natijalarida ham tasdiqlandi [Skehan, 1998; 98]. Post-test natijalari TBLT frameworki va meaning-focused communication konsepsiyasi bilan uyg'unlikni ko'rsatdi, bu esa tajriba guruhining og'zaki nutq kompetensiyasida sezilarli yaxshilanishni tasdiqlaydi deb hisoblaymiz.

Shuni ta'kidlash joizki, nazorat guruhi bilan solishtirganda, post-test natijalari guruhlar orasida sezilarli tafovut mavjudligini ko'rsatdi (3-jadvalga qarang), bu esa noan'anaviy mashqlar tizimining samaradorligini dalillaydi deb hisoblaymiz.

3-jadval

Guruh	Pre-test (Mean \pm SD)
Tajriba	64.8 \pm 4.9
Nazorat	65.1 \pm 5.0

Eksperiment yakunida tajriba guruhi pre-testga nisbatan sezilarli o'sish ko'rsatdi (4-jadvalga qarang):

4-jadval

Post-test va Gain Score (Δ)

Guruh	Post-test (Mean \pm SD)	Gain Score (Δ)
Tajriba	85.4 \pm 4.7	+20.6
Nazorat	70.2 \pm 5.1	+5.1

5-jadval

Post-test va Gain Score (Δ)

Guruh	t-test (p)	Cohen's d
Tajriba	<0.05	1.25–1.75
Nazorat	<0.05	0.4

Debates va Opinion exchange mashqlari tajriba guruhi uchun eng yuqori o'sish ko'rsatdi, bu esa interaktiv va muhokamaga asoslangan faoliyatlarning samaradorligini tasdiqlaydi. Ushbu natijalar communicative competence rivojlanishida interaktiv metodlarning ustuvorligini ta'kidlagan ilgari o'tkazilgan tadqiqotlar bilan mos keladi deb hisoblaymiz [Littlewood, 2004; 92].

Shuningdek, fluency, accuracy va lexical range ko'rsatkichlarida o'sish kuzatildi, bu esa mazkur subkompetensiyalar bo'yicha oldingi ilmiy tadqiqot natijalari bilan uyg'unlikni ko'rsatadi. Interaction va turn-taking subkompetensiyalarida esa Information Gap va Problem-solving mashqlari eng samarali bo'ldi deb hisoblaymiz (6-jadvalga qarang).

Statistik tahlil natijalari $p < 0.05$ darajada sezilarli bo‘lib, bu metodlarning talabalarning og‘zaki nutq kompetensiyasiga bo‘lgan pozitiv ta‘sirini tasdiqlaydi.

6-jadval

Guruh	t-test (p)	Cohen's d
Tajriba	<0.05	1.25–1.75
Nazorat	<0.05	0.4

Tajriba guruhi noan‘anaviy, task-based va critical thinking mashqlarini bajarish orqali ingliz tilidagi og‘zaki nutq subkompetensiyalarida sezilarli o‘shishga erishdi. Motivational tasks (masalan, “Lie to me”) talabalar qiziqishi va self-confidenceni oshirdi, critical thinking tasks esa tanqidiy va strategik fikrlashni rivojlantirdi deb hisoblaymiz. Talabalar nutqni ma‘no yaratish va kommunikativ maqsadga erishish vositasi sifatida qo‘llashni ustun qo‘ydi.

CEFR indikatorlari va Analytic Rubric asosida natijalar quyidagicha bo‘ldi:

1. Fluency: Debates va Opinion exchange mashqlari orqali maksimal rivojlandi.
2. Accuracy: Structured pair tasks yordamida mustahkamlandi.
3. Lexical Range: Jigsaw va Information Gap mashqlari orqali kengaydi.
4. Interaction va Turn-taking: Problem-solving va Information Gap mashqlari

eng samarali bo‘ldi.

Integrativ topshiriqlar orqali og‘zaki nutq komponentlari kompleks shakllandi; motivational va critical thinking mashqlari nutqiy ishonch va interaktivlikni oshirdi. Topshiriqlar real kommunikativ vaziyat yaratib, talabalarning erkin va strategik nutq qobiliyatlarini mustahkamladi deb hisoblaymiz. Natijalar Willis tomonidan ishlab chiqilgan task-based learning framework va Nunan ilgari surgan meaning-focused communication konsepsiyasi bilan to‘liq uyg‘un bo‘ldi, ya‘ni talaba tilni formal grammatik tizim sifatida emas, balki kommunikativ ma‘no yaratish vositasi sifatida qo‘llashga o‘tdi deb hisoblaymiz.

Cheklovlar va kelajak tadqiqotlar uchun tavsiyalar:

– tadqiqot faqat Toshkent Perfect Universiteti 1-bosqich filologiya yo‘nalishi bilan cheklangan;

– eksperiment 8 hafta davomida o‘tkazilgan; uzoq muddatli retention va transfer baholanmadi;

– kelajakda turli bosqich va fanlararo guruhlar bilan tajribalar o‘tkazish, shuningdek, longitudinal dizayn orqali uzoq muddatli samaradorlikni o‘rganish tavsiya etamiz.

XULOSA

Ushbu tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, noan‘anaviy, task-based va critical thinking yondashuvlariga asoslangan mashqlar tizimi filologiya yo‘nalishi 1-bosqich talabalari ingliz tilidagi og‘zaki nutq kompetensiyasini rivojlantirishda an‘anaviy yondashuvga nisbatan ancha samarali deb hisoblaymiz. Tajriba guruhi natijalaridagi sezilarli o‘shish (mean score va gain score asosida) hamda statistik jihatdan ahamiyatli farqlar ($p < 0.05$, yuqori Cohen’s d qiymati) ushbu metodik modelning samaradorligini

tasdiqlaydi.

Tahlillar asosida aniqlanishicha, interaktiv va motivatsion topshiriqlar talabalar faolligini oshirib, ularning ogʻzaki nutq jarayonida ishtirokini kuchaytiradi. Ayniqsa, information gap, jigsaw, problem-solving va debate kabi mashqlar fluency, interaction va lexical range kabi subkompetensiyalarning rivojlanishiga sezilarli taʼsir koʻrsatadi. Shu bilan birga, structured pair tasks va kommunikativ mashqlar accuracy va turn-taking koʻnikmalarini mustahkamlashda muhim rol oʻynaydi deb hisoblaymiz.

Nazorat guruhi natijalari esa anʼanaviy savol-javob va retelling mashqlari til bilimlarini mustahkamlashga xizmat qilsa-da, ogʻzaki nutq kompetensiyasining kompleks va interaktiv rivojlanishini yetarli darajada taʼminlamasligini koʻrsatdi deb hisoblaymiz.

Umuman olganda, tadqiqotimiz natijalari shuni tasdiqlaydiki, kommunikativ, topshiriqqa asoslangan va tanqidiy fikrlashga yoʻnaltirilgan mashqlar integratsiyasi ogʻzaki nutq kompetensiyasini CEFR mezonlari asosida samarali rivojlantiradi hamda til oʻrganishni passiv bilim olish jarayonidan faol kommunikativ faoliyatga aylantiradi deb hisoblaymiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. BERA. (2018). *Ethical guidelines for educational research* (4th ed.). London: British Educational Research Association.
2. Bygate, M., Skehan, P., & Swain, M. (2001). *Researching pedagogic tasks: Second language learning, teaching and testing*. London: Longman.
3. Dörnyei, Z. (2001). *Motivational strategies in the language classroom*. Cambridge: Cambridge University Press.
4. Dörnyei, Z. (2007). *Research methods in applied linguistics*. Oxford: Oxford University Press.
5. Ellis, R. (2003). *Task-based language learning and teaching*. Oxford: Oxford University Press.
6. Facione, P.A. (2011). *Critical thinking: What it is and why it counts*. Millbrae, CA: Insight Assessment.
7. Field, A. (2013). *Discovering statistics using IBM SPSS statistics* (4th ed.). London: Sage Publications.
8. Hymes, D. (1972). On communicative competence. In J.B. Pride & J.Holmes (Eds.), *Sociolinguistics* (pp. 269–293). Harmondsworth: Penguin.
9. Canale, M., & Swain, M. (1980). Theoretical bases of communicative approaches to second language teaching and testing. *Applied Linguistics*, 1(1), 1–47.
10. Karimov, B. (2021). *Ingliz tilida kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish metodikasi*. Toshkent: Fan nashriyoti.
11. Cohen, J. (1988). *Statistical power analysis for the behavioral sciences* (2nd ed.). Hillsdale, NJ: Lawrence Erlbaum Associates.
12. Council of Europe. (2001). *Common European Framework of Reference for Languages: Learning, teaching, assessment*. Cambridge: Cambridge University Press.
13. Creswell, J.W. (2012). *Educational research: Planning, conducting, and evaluating quantitative and qualitative research* (4th ed.). Boston, MA: Pearson.
14. Coyle, D., Hood, P., & Marsh, D. (2010). *CLIL: Content and language integrated learning*. Cambridge: Cambridge University Press.
15. Likert, R. (1932). A technique for the measurement of attitudes. *Archives of Psychology*, 140, 1–55.
16. Long, M.H. (1996). The role of the linguistic environment in second language acquisition.

- In W.Ritchie & T.Bhatia (Eds.), *Handbook of Second Language Acquisition* (pp. 413–468). San Diego, CA: Academic Press.
17. Luoma, S. (2004). *Assessing speaking*. Cambridge: Cambridge University Press.
 18. Nation, I.S.P., & Newton, J. (2009). *Teaching ESL/EFL listening and speaking*. New York, NY: Routledge.
 19. Nunan, D. (1991). *Language teaching methodology: A textbook for teachers*. New York, NY: Prentice Hall.
 20. Pallant, J. (2020). *SPSS survival manual* (7th ed.). London: McGraw-Hill Education.
 21. Rasulov, A. (2019). *Oliy ta'limda ingliz tili o'qitish metodikasi*. Samarqand: SamDU nashriyoti.
 22. Richards, J.C., & Farrell, T.S.C. (2005). *Professional development for language teachers*. Cambridge: Cambridge University Press.
 23. Richards, J.C., & Rodgers, T.S. (2001). *Approaches and methods in language teaching* (2nd ed.). Cambridge: Cambridge University Press.
 24. Saidova, M. (2020). *O'zbekistonda ingliz tilini o'qitishning zamonaviy metodlari*. Toshkent: O'qituvchi.
 25. Skehan, P. (1998). *A cognitive approach to language learning*. Oxford: Oxford University Press.
 26. Tursunov, S. (2017). *Kredit-modul tizimi va uning ta'limdagi ahamiyati*. Toshkent: TDPU nashriyoti.
 27. Ur, P. (1996). *A course in language teaching: Practice and theory*. Cambridge: Cambridge University Press.
 28. Willis, J. (1996). *A framework for task-based learning*. Harlow: Longman.
 29. Xudoyberdiyev, M. (2018). *Ingliz tilini o'qitishda innovatsion texnologiyalar*. Toshkent: Fan.
 30. Yuldashev, A. (2020). *Til o'qitishda interaktiv metodlar*. Toshkent: O'zbekiston.

REFERENCES

1. BERA. (2018). *Ethical guidelines for educational research* (4th ed.). London: British Educational Research Association.
2. Bygate, M., Skehan, P., & Swain, M. (2001). *Researching pedagogic tasks: Second language learning, teaching and testing*. London: Longman.
3. Canale, M., & Swain, M. (1980). Theoretical bases of communicative approaches to second language teaching and testing. *Applied Linguistics*, 1(1), 1–47.
4. Cohen, J. (1988). *Statistical power analysis for the behavioral sciences* (2nd ed.). Hillsdale, NJ: Lawrence Erlbaum Associates.
5. Council of Europe. (2001). *Common European Framework of Reference for Languages: Learning, teaching, assessment*. Cambridge: Cambridge University Press.
6. Coyle, D., Hood, P., & Marsh, D. (2010). *CLIL: Content and language integrated learning*. Cambridge: Cambridge University Press.
7. Creswell, J.W. (2012). *Educational research: Planning, conducting, and evaluating quantitative and qualitative research* (4th ed.). Boston, MA: Pearson.
8. Dörnyei, Z. (2001). *Motivational strategies in the language classroom*. Cambridge: Cambridge University Press.
9. Dörnyei, Z. (2007). *Research methods in applied linguistics*. Oxford: Oxford University Press.
10. Ellis, R. (2003). *Task-based language learning and teaching*. Oxford: Oxford University Press.
11. Facione, P.A. (2011). *Critical thinking: What it is and why it counts*. Millbrae, CA: Insight Assessment.
12. Field, A. (2013). *Discovering statistics using IBM SPSS statistics* (4th ed.). London: Sage Publications.

13. Hymes, D. (1972). On communicative competence. In J.B. Pride & J.Holmes (Eds.), *Sociolinguistics* (pp. 269–293). Harmondsworth: Penguin.
14. Karimov, B. (2021). *Methods for developing communicative competence in English*. Tashkent: Fan Publishing House.
15. Khudoyberdiyev, M. (2018). *Innovative technologies in teaching English*. Tashkent: Science.
16. Likert, R. (1932). A technique for the measurement of attitudes. *Archives of Psychology*, 140, 1–55.
17. Long, M. H. (1996). The role of the linguistic environment in second language acquisition. In W.Ritchie & T.Bhatia (Eds.), *Handbook of Second Language Acquisition* (pp. 413–468). San Diego, CA: Academic Press.
18. Luoma, S. (2004). *Assessing speaking*. Cambridge: Cambridge University Press.
19. Nation, I.S.P., & Newton, J. (2009). *Teaching ESL/EFL listening and speaking*. New York: Routledge.
20. Nunan, D. (1991). *Language teaching methodology: A textbook for teachers*. New York: Prentice Hall.
21. Pallant, J. (2020). *SPSS survival manual* (7th ed.). London: McGraw-Hill Education.
22. Rasulov, A. (2019). *Methods of teaching English in higher education*. Samarkand: SSU Publishing House.
23. Richards, J.C., & Farrell, T.S.C. (2005). *Professional development for language teachers*. Cambridge: Cambridge University Press.
24. Richards, J.C., & Rodgers, T.S. (2001). *Approaches and methods in language teaching* (2nd ed.). Cambridge: Cambridge University Press.
25. Saidova, M. (2020). *Modern methods of teaching English in Uzbekistan*. Tashkent: Publishing House of ‘Teacher’.
26. Skehan, P. (1998). *A cognitive approach to language learning*. Oxford: Oxford University Press.
27. Tursunov, S. (2017). *The credit-module system and its importance in education*. Tashkent: TSUP Publishing House.
28. Ur, P. (1996). *A course in language teaching: Practice and theory*. Cambridge: Cambridge University Press.
29. Willis, J. (1996). *A framework for task-based learning*. Harlow: Longman.
30. Yuldashev, A. (2020). *Interactive methods in language teaching*. Tashkent: Uzbekistan Publishing House.